

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

2022 Vol. 4

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2022 Vol. 4

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Nodir Jo'raqo'ziyev

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoglu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Uşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Zaynabidin Abdirashidov (Turkiya)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief:

Nodir Jurakuziyev

Executive secretary:

Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdolvahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Zaynabidin Abdirashidov (Turkey)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Inomjon Azimov

“O‘zbek yangi alifbasini tuzishda asoslar” risolasi xususida.....6

Iroda Qahhorova

Taqlid so‘zlarning o‘rganilish darajasi va tasniflanish tamoyillari.....26

Jo‘ra Xudoyberdiyev

O‘zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi.....40

Marhabo Umurzoqova

Badiiy matnda lisoniy shaxsni belgilashning gender omili.....74

Alisher Ahrorov

O‘zbek xalq maqollarida “nutq odobi” ma’nosining
ifodalanish darajasi.....86

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin

Buxoro imperiyasi yoki O‘zbekiston bo‘ylab sayohat.....100

San‘at

Gulabza Qarshiyeva

Sa’diy Sheroziy “Bo‘ston” asarining Kamoliddin
Behzod ijodidagi talqini.....128

CONTENT

Linguistics

Inomjon Azimov

Regarding the manual “Rules for creating a new Uzbek alphabet”6

Iroda Kaharova

The degree of study and classification principles of imitative words26

Jura Khudoyberdiyev

Extraction of synharmonism from the Uzbek literary language.....40

Marhabo Umurzakova

The gender factor of determining the linguistic
identity in the literary text.....74

Alisher Ahrorov

The degree of expression of the meaning of “speech etiquette”
in Uzbek folk proverbs.....86

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin

Travel through the Empire of Bukhara or Uzbekistan.....100

Art

Gulabza Karshieva

The interpretation of the ideas of “Boston” epic of Saadi
Sherazi in the creativity of Kamoliddin Bekhzad.....128

Badiiy matnda lisoniy shaxsni belgilashning gender omili

Marhabo Umurzoqova¹

Abstrakt

Tilshunoslikning nisbatan yangi sohasi lingvopersonologiya har bir insonni lisoniy shaxs sifatida tadqiq qiladi. Badiiy matnda lisoniy shaxsning namoyon bo'lishi bir necha omillar ta'sirida yuzaga keladi. Mazkur maqolada tilshunoslikda gender tushunchasi, ayol va erkak jinsiga mansub lisoniy shaxs haqidagi qarashlar o'rganilgan, badiiy matnda lisoniy shaxsni belgilashda gender omillarning o'rni masalasi yoritilgan. Badiiy matnda lisoniy shaxsning shakllanishidagi o'ziga xosliklar tahlilga tortilgan. Lisoniy shaxsning badiiy matnda gavdalanitirilishida yozuvchining til egasi bo'lishi bilan birga boshqa jinsga mansub qahramonning dunyoni anglashi, uni til vositasida ifodalashi, baho munosabatini aks ettirishidagi o'ziga xos jihatlarni anglashi ham muhim sanaladi. Maqolada Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida ayol lisoniy shaxsining yuzaga chiqishida leksik hamda sintaktik birliklarning o'rni masalasiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *lisoniy shaxs, gender omil, leksik birlik, emotsional leksika, morfologik shakl, sintaktik birlik, sintaktik qolip.*

Kirish

Tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning yuzaga kelishi juda ko'p hodisalarga yangicha yondashuvlar zarurligini ko'rsatib berdi. O'zbek tilshunosligida lisoniy shaxs, uning badiiy matndagi ifodasi kabi masalalar haqida tadqiqotlar yetarli emas. Badiiy matnda mualliflarning lisoniy shaxs sifatidagi imkoniyatlari bilan birga voqelikni aks ettirishda badiiylikni ta'minlovchi vositalardan foydalana olish imkoniyatlari ham namoyon bo'ladi. Badiiy matnda lisoniy shaxsning ifodalanishi bir qancha omillar bi-

¹ Umurzoqova Marhabo Egamberdiyevna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: umurzakova.markhabo@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-5658-789X

Iqtibos uchun: Umurzoqova, M.E. 2022. "Badiiy matnda lisoniy shaxsni belgilashning gender omili". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 74–85.

lan bog'liq bo'lib, bunday omillardan biri gender omilidir. Yozuvchi badiiy asarda lisoniy shaxsni shakllantirar ekan, uning shaxs sifatidagi muhim qirralarini gavdalantirishga harakat qiladi. "Lisoniy shaxs deganda insonning yaratilishi va idrokini belgilaydigan qobiliyatlari va xususiyatlari to'plami tushuniladi. Ayol va erkak jinsiga mansub shaxslarning lisoniy shaxs sifatida shakllanishida ular nutqiga xos bo'lgan strukturaviy va lingvistik murakkablik darajasining xilma-xilligi, voqelikni aks ettirishning chuqurligi va aniqligi, muayyan maqsadli yo'nalishning belgilab berilganligi asosiy omil sifatida xizmat qiladi" [Fomin 2004, 21].

Lisoniy shaxsni shakllantirishda yozuvchining olamni anglashi bilan birga til imkoniyatlaridan foydalana olish mahorati ham yuzaga chiqadi. Tilshunoslikda lisoniy shaxs tushunchasi turli xil til egalari va turli xil millat vakillarining olamni anglashi, dunyo-qarashi, voqelikka munosabatining in'ikosi sifatida yuzaga chiqadi. Tilshunoslikda A.G. Fomin tomonidan gender belgisiga ko'ra farqlanuvchi lisoniy shaxslarning nutqi o'rganilgan. Tadqiqotchi A.G.Fomin tilshunoslikda gender degan tushuncha asosan ijtimoiy hayotda ayol shaxsiga qaratilishini hamda ular nutqidagi o'ziga xoslik nazarda tutilishini ta'kidlaydi. Gender diskurs sifatida muloqot jarayonida ayol va erkakka xos bo'lgan xususiyatlarning tilda va nutqda aks etishi deb ko'rsatadi [Fomin 2004, 14]. Erkak va ayolning dunyoni anglashi qanchalik xilma-xil bo'lsa, uni tilda aks ettirishi ham shu qadar xilma-xildir. Ayol yozuvchilarning asarlarida ularning ayol jinsiga mansub til egasi sifatidagi xususiyatlari namoyon bo'ladi. Ayol yozuvchilarning asarlarida muhabbat, diniy tushunchalar, oila, farzand tarbiyasi, sadoqat kabi konseptlar ustunlik qiladi. Ayollar nutqida emotsional leksikaning ko'pligi, gap qurilishidagi qisqalik, noto'liqlik ayol-yozuvchi lisoniy shaxsini hamda ayol-pernosaj lisoniy shaxsini shakllantirishga xizmat qiladi. Badiiy matnda lisoniy shaxsning ifodalanishi, unda lisoniy shaxsning qaysi jinsga mansubligi lisoniy shaxsni belgilashda asosiy omillardan biri ekanligini Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari asosida tahlil qilamiz.

Badiiy matnda ayol lisoniy shaxshining namoyon bo'lishi

Tadqiqotchilar turli millat va elatga mansub insonlarning lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'lishini tadqiq qilganlar. Ayollar va erkaklar nutqidagi o'ziga xoslik haqida to'xtalar ekan, Karasik qiziq fakti keltiradi: "Britaniyaliklarning juda to'g'ri talaffuzining gender o'ziga xosligi shundaki, ayollar iloji boricha aniq gapirishga moyil, erkaklar esa iloji boricha past ovozda gapirishadi" [Karasik

2002, 11]. Lisoniy shaxs haqida soʻz yuritar ekan, A.A. Leontev har bir millatning dunyoqarashi maʼlum bir asosga egaligi va har bir millatning dunyoqarashi oʻzining subyektiv qadriyatlari, ijtimoiy stereotiplari, bilim sxemalari tizimi ekanligini taʼkidlaydi. Shuning uchun inson ongi har doim etnik jihatdan shartlangan, bir xalq tomonidan dunyoni koʻrishni oddiy “qayta yozish” orqali boshqa xalq madaniyati tiliga tarjima qilish mumkin emas, deb hisoblaydi [Fomin 2004, 22].

Badiiy matnda erkak jinsiga mansub qahramon nutqi hamda ayol jinsiga mansub qahramon nutqini berishda yozuvchining kuzatuvchanligi, oʻzga jins vakilining olamni anglashi, idrok etishi va uni nutqida berishi haqidagi bilimlari bilan birga, oʻzlari-ning lisoniy shaxs sifatidagi xususiyatlari ham yuzaga chiqadi. “Badiiy matn, bir tomondan, maʼlum bir madaniyat subyeksi sifatida, ikkinchi tomondan, uni oʻrab turgan voqelik hodisalari haqidagi shaxsiy tushunchaning tashuvchisi sifatida muallifning bilim va gʻoyalarini oʻz ichiga oladi” [Xachmafova 2011, 10]. Tadqiqotchi D.Niyazova oʻzbek tili materiallari tahlili asosida nutqning gender xoslanishini namoyon qiluvchi lingvistik va ekstralingvistik vositalarga erkak va ayol nutqiga xos boʻlgan murojaat birliklari, hissiy boʻyoqdor soʻzlar, iboralar, okkazional konnotativ ifodalar, noadabiy qatlam birliklari, ohang, pauza, talaffuz tempi va turli noverbal vositalarni kiritadi [Niyazova 2020, 52]. Zulfiya Qurolboy qizining “Toʻxtab qolgan vaqt suratlari” hikoyadagi ayollar nutqini dastlab muallif-hikoyachi nutqiga hamda qahramon nutqiga ajratish mumkin. Adibaning hikoyalaridagi lisoniy shaxslar xilma-xil boʻlib, yozuvchi ayol sifatida ayollar ruhiyatini yaxshi angelaydi, ularning lisoniy shaxs sifatida namoyon boʻlishini mohirlik bilan aks ettiradi. Kuzatishlarimiz shuni koʻrsatdiki, adibalarning asarlarida markaziy oʻrinda *oila*, *farzand*, *qadriyat* tushunchalarini ifodalovchi leksemlar yetakchilik qiladi. Yozuvchining ushbu hikoyasida lisoniy shaxs sifatida yorqin namoyon boʻlgan Zilay baycha, Norbuvi checha hamda shaharlik qiz Malika nutqini olish mumkin.

Asarda Zilay baycha eridan yetti qizi bilan beva qolgan, ulardan faqat bittasinigina uzatib, “qozigʻida qariyotgan” olti qizining baxtini soʻrab yotgan ayol. Oʻquvchi koʻz oʻngida mushfiq ayol obrazi shakllanadi. Har bir oʻzbek onasi qizlarining baxtli boʻlishlarini, tengini topib, bola-chaqa orttirishini istaydi. Zilay baycha lisoniy shaxsida asosiy konsept sifatida oila konsepti gavdalanadi. Zilay baychaning qizlariga beradigan bahosi yuqori: “*Odamlarning shaftoliqoqiday burishib-tirishib ketgan qizlariniyam er oladi. Nega*

uning husayni uzumday dirillab turgan qizlarini hech kim nazariga ilmaydi". Asarda Zilay baycha alamzada, shu bilan birga kayvoni ayollar kabi ehtiyotkor, sir boy bermaydigan lisoniy shaxs sifatida gavdalanadi. Tadqiqotlarda ayol jinsiga mansub shaxslar nutqida emotsional leksika, subyektiv baho shakllari, o'xshatishlar erkaklar nutqiga nisbatan ko'proq qo'llanilishi ta'kidlanadi. Yuqorida keltirilgan *shaftoliqoqiday burishib-tirishub ketgan, husayni uzumday dirillagan* o'xshatishlari ayol jinsiga mansub lisoniy shaxsni ajratishga xizmat qilgan. Zilay baycha Isoq chol o'g'liga qizlarini olib bermagach, undan xafa bo'ladi, lekin sir boy bermaydi. Yozuvchi o'zbek ayollariga xos bo'lgan – birovga sir boy bermaslik, dardini oshkor qilmaslik kabi fazilatlarni Zilay baycha lisoniy shaxsida ifodalay olgan. Buni hikoyada qo'llanilgan *keliningiz hali yosh, go'rdi bilarmidi, jilovini hozirdan bo'sh qoysangiz ertan bu kunlar ham holva bo'lib qoladi, asli o'zi erdi xudoy urgan, to'qqiz oy ichida yukli bo'lmagan xotin har baloni kut-sa bo'ladi* kabi gaplar bilan Isoq chol bilan suhbatlashayotgan Zilay baycha nutqida ham ko'rish mumkin. Keltirilgan birliklar so'zlovchining ayol jinsiga mansubligiga, yoshi kattaligiga, hayotiy tajribaga ega ekanligiga ishora qiladi. Yozuvchi Zilay baycha lisoniy shaxsini ifodalashda qishloq ayollari nutqida qo'llaniladigan leksik va frazeologik birliklardan foydalangan. Yuqorida keltirilgan *jilovini hozirdan bo'sh qoysangiz* iborasi, *qozig'ida qariyotgan* o'xshatishi qo'llanilishi jihatidan hududiy mansublikni ham bildiradi. *Jilov, qoziq* leksemasi bilan hosil bo'lgan frazema, o'xshatishlar asosan chorvachilik bilan shug'ullanuvchi kishilar orasida qo'llanilib, shahar hududida yashovchilar orasida bunday birliklarning ishlatilishi uchramaydi.

Hikoyaning yana bir personaji Norbuvi checha qishloqning tuganmas yumushlaridan charchagan, erining tinmay ichishi, befarqligi sababli alamzada, hayotni faqat qorinni to'ydirish, yebichishdan iborat deb biladigan ayol. Boshqa qishloq ayollariga o'xshab, o'zi kiymasa-da, qiziga sarpo yig'adi, bolam-chaqam deb tinim bilmaydi. Tabiiyki, uning olamni anglashidagi shu falsafasi nutqida aks etadi. Norbuvining nutqidagi gap qurilishi ham o'zbek tilining og'zaki so'zlashuv shakliga mos. Bekpo'latning shaharlik qizga uylanishini u o'zicha oqlaydi, oqlash jarayonidagi gaplarini yozuvchi sodda gaplardan iborat nutq sifatida shakllantiradi. *Bek bozorga mayiz olib chiqqan. Mayizi bozordi oldi bo'lgan. Hammadan oldin sotib bo'p, pulni belga tuyib shaharga aylanganda shu qizminan tanishib qog'an.* Fe'l-kesimlarning bir xil grammatik shaklda kelishi uning nutqini og'zaki nutqqa yaqinlashtirishga xizmat qilgan. Yozuvchi qahramon nutqini berishda uning ma'lum bir sheva vaki-

li, bu o'rinda qipchoq lahjasiga xos sheva vakili ekanligiga e'tibor qaratadi. Qahramon nutqidagi *qizminan*, *qog'an* shakllari dialektal mansublikni berishga xizmat qilgan. Ammo matndagi *Mayizi bozordi oldi bo'lgan* gapida qaratqich kelishigi shakli (*bozordi*) shevaga xos, ammo *bo'lgan* fe'li esa adabiy tilga xos shaklda berilishi uning lisoniy shaxs sifatida to'liq shakllanishini buzgan. Bu gapning kesi-mi ham aslida *bo'g'an* shaklida qo'llanilishi kerak edi. Keyingi gapda esa grammatik shakllar bir-biriga uyg'un shaklda ishlatilgan. *Keyin bir balo qip eritgandag'in, ko'ylakmi-juzikmi oberganmi, ishqilib, pulining ba-arini quritib keldi-ku*. Ushbu gapda qo'llanilgan *pulining ba-arini quritib keldi-ku*, birikmasida uning voqelikdan norozili-gi, salbiy baho munosabati ifodalangan. Shu o'rinda yozuvchi ayol nutqining o'ziga xosligini ta'minlashda fonetik vositadan, unlini ort-tirib yozishdan ham foydalangan. A.G. Fomin tadqiqotida jinsga ko'ra ajratilgan rolning muloqot jarayonidagi o'ziga xos uslubini belgilab beradi. Jamiyatda erkak va ayol ma'lum ijtimoiy rol o'ynaydi. Bu o'z-o'zidan o'ziga xos muloqot xarakterini yuzaga kelishida sabab bo'ladi. Qoliplashgan shaklga kelgan bunday muloqot nutq jarayonida verbal yoki noverbal vositalar yordamida namoyon bo'ladi [Fomin 2004, 16]. Norbuvi nutqida qishloq ayollariga xos *qurib ketkur, go'shtingni maydalamasimdan, yurishing qursin, shoshmay tur, qoningni ichmasammi, o'lsin, epsizligi o'zining boshiga yetsin* kabi qoliplashgan birliklar, *taytuv, jinqarcha* kabi murojaat shakllari uning nutqidagi o'ziga xoslikni ta'minlashga xizmat qilgan. Shuningdek, farzand tarbiyasini qattiqqo'llikdan, mehnat qilishga o'rgatishdan iborat deb biluvchi o'qimagan qishloq ayoli lisoniy shaxsini ifodalashda asosiy vosita sifatida xizmat qilgan. Norbuvining "*men partiyaman*" gapini uning lisoniy shaxs sifatida boshqa ayollardan farqini ko'rsatuvchi muhim jihat sifatida baholash mumkin. Ayol nutqida bu sintaktik birlik o'ziga nisbatan yuqori bahoni berishda xizmat qilgan bo'lsa, hikoyadagi erkak personajlaridan birining nutqida esa bu salbiy baho munosabatini ifodalash uchun muhim vosita sifatida qo'llaniladi: "*Shaharlik bo'lsa ne bo'пти? Isoqboy el qatori qalin beradi, el qatori to'y qiladi. Faqat... Sersoqol kishining yuzida tashvish alomatlari sezildi. – She'r yozgani chatoq ekan-da. Shoyir bo'lsa partiya bo'lishi turgan gap*". Yozuvchi *partiya* leksik birligi yordamida ikki jins vakilining voqelikka ikki xil nuqtayi nazardan yondashuvini ifodalashda foydalangan. Ayol jinsiga mansub personaj nutqida o'ziga yuqori baho berish uchun qo'llanilgan birlik erkak nutqida ayol kishiga nisbatan past baho berish uchun ishlatilgan. Erkak personaj nutqida semantik jihatdan mos bo'lmagan leksemalarning qo'llanilishi uning

lisoniy shaxs sifatida shakllanishi uchun xizmat qilgan.

Aksariyat tadqiqotchilar lisoniy shaxsning shakllanishida leksik birliklarning o'rne muhim ekanligini ta'kidlaydilar. O'zbek tilida badiiy matnda lisoniy shaxs tiplari haqida tadqiqot olib borgan D. Niyazova ham O'Hoshimov asarlarida lisoniy shaxsning namoyon bo'lishida leksik birliklarning o'rne masalasiga e'tibor qaratgan [Niyazova 2020]. Haqiqatdan ham lisoniy shaxsni belgilashda leksik birliklarning o'rne muhim sanaladi. Ammo lisoniy shaxsning namoyon bo'lishida morfologik vositalar, xususan, lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar, gap qurilishidagi o'ziga xosliklarning ham o'rne beqiyos. Tadqiqotchilar nafaqat so'z, hatto morfemalar ham milliy xarakter yaratishda muhim ekanligini ta'kidlaydilar [Zaliznyak 2012, 188].

Norbuvi lisoniy shaxsida obyektiv voqelikni o'z ko'rishiga muvofiq tasvirleydigan, o'z maqsadiga erishish uchun til imkoniyatlaridan imkon qadar foydalanishga harakat qilgan qahramon ifodalanadi. Yozuvchining pragmatik maqsadi qahramon pragmatik maqsadi bilan uyg'un holatda yuzaga chiqadi. Bunda tanlangan leksik birliklar, sintaktik qurilmalarning o'z o'rne bor. Shu o'rinda Norbuvi obrazining kitobxon ko'z o'ngida gavdalanishida Malikaning odamning yaralishi, yashashidan maqsadi, "men"ini topishga bo'lgan intilishi natijasida bergan savollariga javobni yuqorida keltirilgan *"men partiyaman"* jumlasida vositasida ifodalaydi. Partiya a'zosi bo'lish, uning nimaga kerakligi, nima uchun a'zo bo'lganligini, maqsadi nima ekanligini tushunib yetmagan qishloq ayoli uchun onda-sonda partkom buva chaqirganda majlisga borish, majlisdan keyin choynakpiyola, arzon chit olib kelishni buyuk iltifot deb biladigan shaxs qiyofasi gavdalanadi. Uning o'z hayotidan mamnun shaxs sifatidagi lisoniy qiyofasini yozuvchi quyidagicha chizadi: *"Bizardi ja anoyi deb o'ylamasin-da bu jinqarcha! Hali ertan bir kun partkom bova uyma-uy yurib, bizdi aptovuzda obketganini o'z ko'ziminan ko'rsa, toza kuyib ketsa kerag-ov"*. Ayollar nutqida undov so'zlar, qiyoslash, subyektiv baho berish uchun xizmat qiladigan leksik birliklar erkaklar nutqiga nisbatan ko'proq uchraydi. Keltirilgan parchada *ja, anoyi, jinqarcha, toza kuyib ketsa kerag-ov* kabi birliklar so'zlovchining ayol jinsiga mansubligini ko'rsatadi.

Hikoya qahramoni Malika shahardan tog' orasidagi do'ppi-day qishloqqa kelin bo'lib tushgan, o'qigan, hayotga boshqacha nigoh bilan qaraydigan qiz. Dastlab qishloq manzarasining niho-yatda go'zalligi uni chinakam baxtga erishgan shaxs sifatida his qilishiga sabab bo'ladi. Sekin-sekin qishloq hayotining juda og'ir

yumushlari uning ham gardaniga tushadi. Nutqida norozilik alomat-lari sezila boshlaydi. Uning ovqat ko'p yeyayotganligi bilan bog'liq noroziligi o'qimagan, hayotni faqat yaxshi yeb-ichishdan iborat deb biladigan eriga g'alati tuyiladi. Yozuvchi uning dastlab baxtiyor, keyin atrofdagi muhitdan norozi qiyofasini turli leksik birliklar hamda sintaktik qurilmalar yordamida shakllantiradi.

Ko'p ovqat yeyish ziyon. U odamni dangasa, uyquchi qilib qo'yadi, olim bo'lmasam ham, miyaning ishlab turgani yaxshi-da, o'qishi shart emas, lekin yozish shart kabi sintaktik birliklar lisoniy shaxsning erkak yoki ayol jinsga mansub ekanligini ko'rsat-masa-da, o'qimishli shaxs ekanligiga ishora qiladi. Badiiy matnda qo'llanilayotgan har bir til birligi muallifning kommunikativ maq-sadiga mos ravishda tanlanadi. Malika nutqida qo'llanilgan *biz chumolimiz, maqsad bitta: ya'ni qorin to'ydirish, odamlar faqat yeb-ichish, bola-chaqa orttirish uchun dunyoga kelarkan-da, mehnat odamni maymunga aylantiradi, senam xotinman deb yuribsan-da bir erkakning umrini o'tkazib* kabi sintaktik birliklardan atrofida-gi odamlarning dunyoqarashini o'zgartirishga, hayotda katta ma-qсадlar qo'yish kerakligini odamlarga uqtirishga urinayotgan ayol-ning lisoniy shaxsini gavdalandirishda foydanilgan. Lisoniy shaxs tipini hosil qilishda uslubiy xoslangan birliklar ham muhim o'rin tutadi. Jumladan, so'zlashuv uslubida qo'llanishga xoslangan ayrim birliklar nutq egasining shaxsiy sifatlari – ijtimoiy maqomi, oiladigi ijtimoiy roli, jinsi, yosh xususiyatlari, voqelikka bo'lgan munosabati, ruhiyati haqida axborot tashiy oladi. Malika nutqida qo'llanilgan *Norbuvi opa, aka, oyijon* kabi murojaat birliklari uning oilada kichik kelin ekanligiga, qaynog'asi borligiga, onasi uchun ardoqli farzand ekanligiga ishora qiladi. Norbuvi nutqida qayta-qayta qo'llanilgan *Malika, siyirdi sog'ib ol* gapida esa, katta kelinning kichik kelinga nisbatan mensimaslik, o'zini katta hisoblash, qaynonasi yo'q kelinga nisbatan qaynonalik maqomida turadigan ayolning lisoniy shaxsi gavdalandirilgan.

Ayollar nutqidagi emotsional bo'yoqdor so'zlar

Tadqiqotchilar ayollar nutqida emotsional bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar, subyektiv munosabat ifodalovchi morfologik shakllar, baho munosabatini ifodalovchi sintaktik qurilmalar erkaklar nutqiga nisbatan ko'proq uchrashini ta'kidlaydilar. Xarakterning hissiy qiyofasi xususiyatlari nafaqat ma'lum bir (emotiv) turni, balki yozuvchi asarlaridagi gender xususiyatlarini, erkak va ayol personajlari o'rtasidagi farqlarni ham aks ettirishini

M.A. Bulgakov asarlari misolida tadqiq qilingan [Smirnova 2011, 18] V.Maslova ayollar va erkaklar nutqidagi lingvistik va xalqona stereotiplar haqida soʻz yuritir ekan, erkaklar tildagi yangiliklarni yaxshi oʻzlashtirishlari, shuning uchun ular nutqida yangi soʻz va terminlar koʻproq uchrashini, ayollarning nutqi koʻproq neytral, statik, ularning lugʻat boyligida koʻproq eskirgan soʻzlar va iboralar uchrashini qayd etadi [Maslova 196, 2001]. Hikoyada Isoq chol nutqidagi qisqalik, sodda gaplarning koʻp qoʻllanilishi, *eshshak*, *nodon*, *nokas* kabi leksik birliklar, buyruq gaplar hamda buyruq gaplardan keyin undov belgisining qoʻllanilishi qattiqqoʻl, qatʼiyatli, shuningdek, baʼzi hollarda tasalliga muhtoj qariya erkak lisoniy shaxsini namoyon qiladi.

Lisoniy shaxsni tilshunoslikda gender belgilari asosida tadqiq qilish ayol va erkak yozuvchilar asarlari tilidagi oʻziga xosliklarni baholashda ham muhim ahamiyatga egadir. Badiiy matnda ayol lisoniy shaxsini shakllantirishda emotsional leksika bilan birga koʻchma maʼnoli birliklar, asosan metafora usulida maʼno koʻchishining ham oʻziga xos oʻrni va ahamiyati bor. Kuzatishlarimiz shuni koʻrsatdiki, biz tahlilga tortgan yuqoridagi hikoyalarda birlamchi nominativlikni ifodalaydigan birliklar qoʻllanilgan boʻlib, lisoniy shaxsni ifodalashda metaforalardan, xususan, kognitiv metaforalardan foydalanish asosan erkak jinsiga mansub adiblar ijodida kuzatiladi. Dunyo tilshunosligida, xususan, rus tilshunosligida badiiy matnda stereotiplarning oʻziga xos namoyon boʻlishini erkak va ayol jinsini ifodalashda qoʻllaniladigan leksemalarning verballashuvi, ularning qoʻllanilishidagi oʻziga xos jihatlar tadqiq qilingan. Tadqiqotchi oʻz tadqiqotida ruscha *mujik* (*мужик*) soʻzining *mujchina* (*мужчина*) soʻziga nisbatan koʻproq uchrashini adib asarlarining bosh qahramonlari asosan oddiy xalq, qishloq bolasi, oddiy qishloq yigiti, taygada yashaydigan xalq ekanligi bilan izohlaydi hamda bunday qoʻllanish ular uchun meʼyoriy holat ekanligini taʼkidlaydi [Башкова 2018, 229]. Kuzatuvlarimiz shuni koʻrsatdiki, oʻzbek adiblarining asarlarida bunday oʻziga xoslikni taʼminlovchi leksemalarning qoʻllanilishi deyarli uchramaydi. Zulfiya Qurolboy qizining biz tahlilga tortgan hikoyalarida ayol jinsiga nisbatan koʻproq salbiy munosabatni ifodalovchi leksemalar qoʻllanganligini koʻrishimiz mumkin.

“Muhabbat va nafrat” hikoyasida ham ayol jinsiga mansub qahramonlar oʻziga xos nutq egasi sifatida shakllantirilgan. Hikoyada voqealar shaharda yuz berganligi bois qahramonlar nutqidagi lisoniy birliklar ham ajralib turadi. Hikoya qahramoni Dildora qishloqdan

shaharga kelib yashab qolgan, shaharda yashab qolish uchun jon-jahdi bilan har qanday yo'llar bilan harakat qilayotgan qiz. Adiba uning shartaki, kurashuvchan, har qanday holatda ham maqsadiga erishishni ko'zlagan qahramon sifatida shakllantirishda quyidagi lisoniy birliklardan foydalangan:

1. Emotsional bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar: *kuydirgi, ablah*.

2. Gender xoslikni ifodalovchi sintaktik birliklar: *er topish qiyinmas, erim uyda yo'q, hayotimni barbod qilib qochib qolmoqchimisiz, faqat meni tashlab ketmaslikka so'z bering, ota-onamga nima deyman, men juda qimmat turaman, men ersiz yashashim mumkin, siz men uchun yagona erkak emassiz, bu haqda tul bo'lib qolganimdan keyin gaplashamiz, o'g'rini sevib bo'lmaydimi*.

3. O'xshatishlar: *kalamushga o'xshab, hamma yoqdan hid olib yuradi*.

Ko'rinib turibdiki, yozuvchi aldangan, jamiyat a'zolari qabul qila olmaydigan qonun-qoidalar asosida yashayotgan, ma'naviy jihatdan zaif, irodasiz, faqat yaxshi hayotga erishishni maqsad qilgan sodda qishloq qizining lisoniy shaxsini shakllantirishda sintaktik birliklardan, bu o'rinda sodda gaplardan o'rinli foydalangan. Badiiy matnda lisoniy shaxs kommunikativ maqsadiga muvofiq jumla tuzar ekan, bunda muloqotga kirishuvchi shaxslarning ijtimoiy maqomi, yoshi, jinsi, jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq omillar o'z ifodasini topadi. Dildora hikoyada uy egasidan qarzdor ijarachi sifatida jabrdiyda qiyofasida, Abdullaning ayoli bilan muloqotda alamzada ayol qiyofasida, Po'lat bilan munosabat jarayonida ehtiyotkor, o'ylab qadam bosadigan ayol qiyofasida ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Tabiiyki, yozuvchi bu o'ziga xos, rang-barang qiyofadagi lisoniy shaxsni shakllantirishda til imkoniyatlaridan unumli foydalanishga harakat qiladi. Dildoraning uy egasi Mavjuda opa bilan muloqotida yozuvchi sodda, to'liqsiz gaplardan foydalanadi. Bu muloqotga kirishuvchi shaxslarning gapni tezroq tugatib muddaoga o'tish maqsadi bilan bog'liq holda yuzaga chiqqan. Ushbu o'rinda yozuvchi Dildoraning ichki nutqi va tashqi nutqini parallel keltiradi. Ichki nutqda qahramonning ijarachidan o'ta norozilik holati *kuydirgi, kalamush* leksemalari bilan, tashqi nutqida esa *Mavjuda opa, iltimos* leksemalari bilan ifodalangan.

Tadqiqotchilar ayol va erkak lisoniy shaxsiga xoslikni berishda quyidagi fikrni bildirganlar: "Ayollar ko'p hollarda aloqa o'rnatish uchun, erkaklar muammoga yechim topish uchun gapirishadi" [Tannen 1996, 13]. Tahlilga tortilgan ushbu hikoyada Dildora har safar aloqa o'rnatish uchun tashabbusni o'z qo'lida tutib turadi. Hiko-

yaning qahramonlari Abdulla, Po'lat esa muammoga yechim topishga harakat qilgan erkak lisoniy shaxslari sifatida shakllantirilgan. Ta'kidlash kerakki, adiba hikoya qahramonlarining xarakteriga mos lisoniy qiyofasini ham shakllantira olgan. Po'latning xarakteriga ham, Abdullaning xarakteriga ham mos lisoniy birliklarning tanlanishi yozuvchining mahoratidan dalolat beradi. Hikoya qahramoni Dildora oddiy, sodda qishloq qizi lisoniy shaxsidan shaharda o'z o'rnini topishga intilayotgan, qanday bo'lmasin yashab qolishga urinayotgan lisoniy shaxs darajasiga ko'tariladi. Bunda leksik birliklar bilan bir qatorda sintaktik birliklarning o'rni ham ahamiyatlidir. *Yerni tagidan bo'lsa ham sug'urib olaman, agar yana qochib yuradigan bo'lsa, uyiga borib sharmandasini chiqaraman, uyiga bostirib boraman, bu yerda endi qorangizni ko'rmay* kabi gaplar vositasida qat'iyatli ayol lisoniy shaxsi shakllantirilgan.

